



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli .....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	





Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING O'ZINI O'ZI ANGLASHIDA MULOQOTNING O'RNI

**Yaxshiboyeva Zuhra**

O'zbekiston Milliy Universitetining  
Jizzax filiali Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti

**Pardayeva Munisa**

O'zbekiston Milliy Universitetining  
Jizzax filiali Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zini anglash jarayonida muloqotning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oilaviy, tengdoshlar va tarbiyachilar bilan olib boriladigan muloqotning psixologik-pedagogik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali kommunikativ muhit yaratish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, o'ziga baho berish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, o'z-o'zini anglash, maktabgacha yosh, shaxs rivojlanishi, kommunikativ faoliyat, ijtimoiylashuv, bola psixologiyasi, tarbiya.

**Abstract:** This article scientifically and theoretically analyzes the importance of communication in the process of self-awareness development in preschool children. The psychological and pedagogical features of communication with family members, peers, and educators in the formation of a child's personality are highlighted. In addition, the issues of developing independent thinking, self-assessment, and social adaptation skills in children through creating an effective communicative environment in preschool educational organizations are revealed.

**Key words:** communication, self-awareness, preschool age, personality development, communicative activity, socialization, child psychology, upbringing.

**Аннотация:** В данной статье научно и теоретически анализируется значение общения в процессе формирования самосознания детей дошкольного возраста. Освещаются психолого-педагогические особенности общения с семьёй, сверстниками и воспитателями в становлении личности ребёнка. Также раскрываются вопросы развития у детей навыков самостоятельного мышления, самооценки и социальной адаптации посредством создания эффективной коммуникативной среды в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** общение, самосознание, дошкольный возраст, развитие личности, коммуникативная деятельность, социализация, детская психология, воспитание.

## KIRISH

“Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan shaxs sifatida shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi” [1]. Aynan ushbu davrda bolaning o'z-o'zini anglashi, atrofdagilar bilan muloqotga kirishishi hamda o'z “Men”ini his qilishi shakllana boshlaydi.

Bolada emotsional kechinmalar, qiziqishlar va ehtiyojlar asosida turli faoliyatlarga nisbatan munosabat yuzaga keladi. Muloqot jarayonida bola kattalar va tengdoshlari yordamida his-tuyg'ularning mazmunini tushunishga, ularni ifodalashga va farqlashga o'rganadi. Shuningdek, bola o'zining emotsional holatini baholash va nazorat qilish ko'nikmalarini ham egallaydi. Bu esa unda o'ziga, boshqalarga hamda atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga xizmat qiladi [2].

Muloqot orqali bola jamoada o'zini erkin his qilishni, boshqalar bilan hamkorlik qilishni va ijtimoiy munosabatlarga kirishishni o'rganadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim jarayonida tashkil etiladigan suhbatlar, o'yinlar va jamoaviy faoliyatlar bolaning o'z fikrini erkin ifodalashiga yordam beradi. Natijada bolaning o'z-o'zini anglash darajasi rivojlanib, u o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon eta boshlaydi.

Psixologiyada o'z-o'zini anglash insonning ruhiy jarayonlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon individning o'zini faoliyat subyekti sifatida anglashi bilan bog'liq bo'lib, natijada insonda o'zi haqidagi tasavvurlar, ya'ni ruhiy “Men obrazi” shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda esa o'z-o'zini anglash asta-sekin rivojlanadi va bu jarayonda muloqot muhim o'rin egallaydi.



Bola hayotining dastlabki bosqichlarida o'zini mustaqil shaxs sifatida to'liq anglay olmaydi. U ko'pincha o'zini ismi bilan ataydi, chunki atrofdagilar uni shu tarzda chaqiradi. Dastlab bola o'zining mavjudligini ko'proq boshqalar uchun obyekt sifatida qabul qiladi va hali o'zini mustaqil subyekt sifatida his eta olmaydi. Aynan kattalar va tengdoshlari bilan olib boriladigan muloqot jarayonida bola asta-sekin o'z "Men"ini anglay boshlaydi.

Muloqot davomida bolaga beriladigan e'tibor, munosabat va baholar uning o'ziga nisbatan tasavvurlarini shakllantiradi. Kattalarning qo'llab-quvvatlashi, ijobiy fikrlari hamda tengdoshlari bilan bo'ladigan hamkorlikdagi faoliyat bolaning o'z imkoniyatlarini anglashiga yordam beradi. Natijada bola o'zini jamoaning bir a'zosi, mustaqil fikrga ega shaxs sifatida his qila boshlaydi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zini anglashida muloqot asosiy psixologik va pedagogik omillardan biri hisoblanadi [3].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiya fanida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zini anglashi va muloqot jarayoni muhim ilmiy masalalardan biri sifatida o'rganilgan. L.S. Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit hamda muloqot orqali shakllanishini ta'kidlagan. Olimning fikricha, bola kattalar bilan muloqot jarayonida o'z imkoniyatlari va shaxsiy xususiyatlarini anglay boshlaydi.

A.N. Leontev va D.B. Elkonin tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda faoliyat va tengdoshlar bilan muloqot o'z-o'zini baholash hamda "Men" konsepsiyasining shakllanishiga ta'sir etishi yoritilgan. J. Piaget esa bolaning ijtimoiy muloqot orqali egotsentrik tafakkurdan ijtimoiy fikrlashga o'tishini asoslab bergan.

O'zbekistonlik psixolog olimlardan E.G'. G'oziyev, B.R. Qodirov, V. Karimova va G'. Shoumarovlarning ilmiy ishlarida oilaviy muhit, tarbiya va muloqotning bola shaxsiy rivojlanishidagi psixologik ahamiyati keng tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, samimiy va qo'llab-quvvatlovchi muloqot maktabgacha yoshdagi bolalarda o'ziga ishonch, ijobiy "Men" obrazi hamda ijtimoiy faollikning shakllanishiga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zini anglashida muloqotning o'rnini aniqlash maqsadida eksperimental metod asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida kommunikativ faoliyatga asoslangan interaktiv mashg'ulotlar, suhbatlar, rolli o'yinlar hamda kreativ teatr elementlari eksperimental mustaqil o'zgaruvchi sifatida tanlandi. Bolalarning o'z-o'zini anglash darajasi, emotsional holatini ifodalashi va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ko'nikmalari esa bog'liq o'zgaruvchi sifatida belgilandi.

Tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlarining katta guruh tarbiyalanuvchilari ishtirokida olib borildi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ikkita parallel katta guruh tanlab olinib, tasodifiy ravishda eksperimental va nazorat guruhlariga ajratildi.

Eksperiment boshlanishidan oldin har ikkala guruhdagi bolalarning o'z-o'zini anglash darajasi hamda kommunikativ faolligini aniqlash maqsadida dastlabki diagnostik kuzatuv va suhbat metodlari o'tkazildi. Tadqiqotda bolalarning o'z his-tuyg'ularini ifodalashi, o'ziga baho bera olishi, tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirishishi va jamoada o'zini tutishi kabi ko'rsatkichlar baholandi. Olingan natijalar statistik tahlil qilinib, eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasida dastlabki rivojlanish darajasi bo'yicha sezilarli farq mavjud emasligi aniqlandi ( $p > 0,05$ ). Bu esa tadqiqotni bir xil boshlang'ich sharoitda olib borish imkonini berdi.

Eksperimental guruhda tashkil etilgan kommunikativ mashg'ulotlar davomida bolalar jamoaviy o'yinlar, sahnalashtirilgan faoliyat, savol-javoblar va erkin suhbatlar orqali faol muloqotga jalb qilindi. Natijada bolalarda o'z fikrini erkin ifodalash, his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish hamda o'z "Men"ini namoyon etish ko'nikmalari sezilarli ravishda rivojlanganligi kuzatildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zini anglashida muloqotning o'rnini eksperimental tarzda o'rganildi. Tadqiqotda eksperimental guruhda kommunikativ faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar, jumladan, suhbat, rolli o'yin, drammatizatsiya va jamoaviy faoliyatlar tashkil etildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy mashg'ulotlar olib borildi.

Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, har ikkala guruhdagi bolalarning o'z-o'zini anglash darajalari deyarli bir xil ko'rsatkichni tashkil etdi. Eksperiment yakunida esa eksperimental guruh bolalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi.

Ayniqsa, bolalarning o'z fikrini erkin ifodalashi, tengdoshlari bilan faol muloqotga kirishishi, o'z hissiyotlarini anglay olishi va jamoada o'zini erkin tutishi rivojlanganligi aniqlandi.(1-jadval)

**1-jadval: Eksperimental va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari**

Ko'rsatkichlar	Eksperimental guruh	Nazorat guruhi
O'z fikrini erkin ifodalash	82 %	61 %
Tengdoshlari bilan muloqotga kirishish	85 %	64 %
Emotsional holatini ifodalash	80 %	58 %
O'ziga ishonch darajasi	84 %	60 %

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, eksperimental guruhdagi bolalarda kommunikativ faoliyat orqali o'z-o'zini anglash ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lgan. Ayniqsa, jamoaviy o'yinlar va dramatik mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, muloqot bolaning o'z "Men"ini anglashida muhim psixologik omil hisoblanadi. Bola kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o'z imkoniyatlarini baholashni, his-tuyg'ularini boshqarishni va o'ziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Ayniqsa, tarbiyachining rag'batlantiruvchi nutqi va qo'llab-quvvatlovchi munosabati bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ faoliyatga asoslangan interaktiv metodlardan foydalanish bolalarning o'z-o'zini anglash darajasini samarali rivojlantiradi. Shu sababli ta'lim jarayonida suhbat, rolli o'yin, sahnalashtirish va jamoaviy faoliyatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zini anglashida muloqot muhim psixologik-pedagogik omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari kommunikativ faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar bolalarda o'z fikrini erkin ifodalash, tengdoshlari bilan samarali munosabat o'rnatish, hissiyotlarini anglash va boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Eksperimental mashg'ulotlar davomida qo'llanilgan suhbat, rolli o'yin, dramatzatsiya va jamoaviy faoliyat metodlari bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish hamda o'z "Men"ini anglashiga yordam berdi. Ayniqsa, tarbiyachi va tengdoshlari bilan tashkil etilgan samarali muloqot jarayonlari bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qulay kommunikativ muhit yaratish, bolalarni erkin fikr bildirishga rag'batlantirish hamda interaktiv pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'z-o'zini anglash jarayonining samaradorligini oshirishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida muloqotga asoslangan metodlarni keng qo'llash bolalarning ijtimoiylashuvi, emotsional rivojlanishi va shaxsiy kamolotini ta'minlashda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- From the speech of President Sh. Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the anniversary of Uzbekistan's independence. "Uzbekistan is entering the era of a new Renaissance – the Third Renaissance." <https://kun.uz/news/2020/08/31/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-yangi-bir-uygonish-uchinchi-renessans-davriga-poydevor-qoy-ilmogda>
- Bahrieva Nargiza Akhmadovna. Pedagogical and psychological features of the socio-emotional development of pre-school children // Modern Education (Uzbekistan). 2020. No. 11 (96).
- URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-izhtimoiy-issiy-rivozhlantirishning-pedagogik-psihologik-hususiyatlari>
- Bahrieva Nargiza Akhmadovna. Pedagogical and psychological features of the socio-emotional development of pre-school children // Modern Education (Uzbekistan). 2020. No. 11 (96).<https://moluch.ru/archive/417/92418/>
- Karimova V.M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. – 356 b.
- G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2021. – 312 b.
- Xasanboyeva O.U., Tadjibayeva D.J. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2023. – 280 b.
- Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Smysl, 2020. – 410 b.
- Mavlonova R.A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: "Noshir", 2022. – 428 b.
- Chen J., Loy C.L. "The Effects of Creative Drama on Self-Awareness Intelligence in Preschool Children" // International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences. – 2024. – Vol. 14, № 3. – P. 215–223.
- Manfra L., Winsler A. "Preschool Children's Awareness of Private Speech" // International Journal of Behavioral Development. – 2021. – Vol. 45, № 2. – P. 120–129.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.